

YAPONIYADA TA'LIM TIZIMIGA IXTISOSLASHTIRILGAN GAZETALAR

Nuridinova Toxiraxon Shokirxonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Yaponiyadagi ta'lismiga ixtisoslashgan ayrim ommaviy axborot vositalari, xususan, gazetalarda nashr etilgan materillar, nashrlarning o'ziga xosligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *ta'lism, fanlar majmuasi, ota-onalar, o'qituvchilar, rubrika, ommaviy axborot vositalari, gazeta, maqola, muallif.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются некоторые средства массовой информации, в частности материалы, публикуемые в газетах, специализирующихся на системе образования Японии.

Ключевые слова: *образования, комплекс наук, родители, учителя, рубрика, средства массовой информации, газета, статья, автор.*

ANNOTATION

This article will discuss the Japanese mass media which are specialized in educational purposes especially, newspapers and their features

Key words: *education, subjects complexity, parents, teachers, rubrics, mass media, newspaper, article, author.*

Bugunga qadar Yaponiya ta'lismi o'zining samaraliligi va samaradorligi bilan dunyoning boshqa hududlaridagi ta'lism jarayonidan farq qiladi, boisi aniq rejallashtirilgan, bolaning yosh va psixologik imkoniyatlari asosida tashkillashtirilgan hamda inson omili asosida shakllantirilganligi o'zining samarasini bermoqda. Juda ko'p davlatlarning ta'lismi aynan yapon modeli asosida yo'lga qo'yilgan.

Yaponiyada ta’limga, o‘quvchining aqliy va jismoniy sog‘lom voya yetishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi sababli, barcha resurslar shu maqsadga yo‘naltirilgan. Aynan, Yaponiya ommaviy axborot vositalari qatorida ta’lim tizimi va uning ichki hayoti bilan bog‘liq gazeta, jurnal va teleradioko‘rsatuvarlar, internet saytlari muntazam faoliyat olib boradi. Eng yirik korporatsiyalardan biri, NHKning alohida bo‘limi ta’limga bag‘ishlangan hamda ushbu tizimning ichki hayoti, o‘qituvchi va o‘quvhilarning samaradorligi, ota-onalarning ta’lim hayotidagi ishtiroki muntazam kuzatiladi va xulosalar ta’lim vazirligiga yuboriladi. 1950 yildan beri NHK (Yaponiya davlat teleradio uzatish kompaniyasi) muntazam ravishda maktab o‘quvchilar ga mo‘ljallangan turkum ko‘rsatuv va radioeshittirishlarni alohida yosh toifasiga moslashtirilgan holda tayyorlab uzatib keladi.

Bundan tashqari, alohida maktab hayotini yorituvchi ixtisoslashgan gazeta va jurnallar mavjudki, bir necha yillardan beri ta’lim islohotlari, o‘quvchi va o‘qituvchilarning faoliyati, muammolar va ekspertlarning izohi, ota-onalarning fikrini faol yoritib boradi. NHK news, “The Japan times” (English)Shulardan bittasi, “The Kyoiku Shimbun English” gazetasi aynan ta’lim tizimini yoritish uchun mo‘ljallanga davriy nashr bo‘lib, 1961 yil mart oyidan buyon faoliyatini olib boradi. Dastlab, “The Bell News” nomi bilan nashr etilgan gazeta, keyinchalik milliy ruhni aks ettirish maqsadida yuqorida keltirilgan nom bilan oradan bir yil o‘tgandan keyin faoliyatini davom etadi. Gazeta 1976 yilga qadar uch kunda nashr etilgan, biroq ta’limdagi islohotlarning ortishi, fan va texnika imkoniyatining ortishi gazeta sahifasini kamaytirish va tiraj, davriyligini tezlashtirishga yo‘l ochdi va shu yildan boshlab gazeta avval kunora keyinchalik har kuni ertalab nashr etilib, gazetxonlar qo‘liga yetib boradigan bo‘ldi. Gazetaning alohida xususiyati shundan iborat ediki, o‘qituvchilar va ota-onalarning doimiy ta’lim tizimi haqidagi fikrlari va takliflari chop etilar, kamchiliklar va o‘quvchilar duch kelayotgan muammolar, fanlarning o‘qitilishi, ta’lim muassasasidagi jarayonlar hech bir bosimsiz to‘g‘ridan to‘g‘ri chop etilar, ta’lim tizimi mas’ullariga yetkazilar edi. Ushbu an’ana bugunga qadar saqlangan bo‘lib, ayni vaqtida nafaqat an’anaviy shakl balki onlayn sahifa orqali biror to‘siqsiz gazeta

o‘quvchilarining, ayniqsa, ota-onalarning munosabatiga alohida sahifa yaratilgan. Balki, shu bois farzandlari ta’lim muassasasiga qatnaydiga ota-onalar ushbu gazetani sotib olishga qiziqadilar.

Gazeta sahifalarida keltirilayotgan maqolalar, tahlillar va ota-onalar, o‘qituvchilarning munosabatini asosiy yirik planda beriladi. Gazeta ikki tilda chop etilishi bois biz asosiy e’tiborni ingliz tilidagi maqolalar tahliliga qaratdik , chunki gazeta har kuni ertalab yuz ming nusxadan ziyod 8 betdan toki 24 betgacha chop etiladi. Eng ko‘p rubrikalar turkumiga “General studies” (“Umumiylar”) va “Subject” (“Fanlar”) bo‘limlarini oladigan bo‘lsak eng ko‘p tanqidiy, tahliliy va fanlar majmuasining tizimli tahlili berilgan bo‘lim, biror fan o‘qitilishi yoki sinf hayotidagi muammo olib chiqiladi va mutaxassis, ota-ona va jamoat fikri beriladi. Ushbu rubrikalar gazeta xodimlarining nuqtayi nazaridan kelib chiqib, o‘zgartirib boriladi. Masalan, 2021-yilda bir necha marotaba gazetaning “Do we need more subjects?” tahliliy chiqishlardan keyin, ota-onalarning taklifi bilan o‘tilayotgan dunyo qadimiylarini zamonaliviy dunyo qiyofasi faniga o‘zgartirildi. Albatta, bu ko‘pgina sho-shuvlarga sabab bo‘lib, boshqa yetakchi “The Yomiuri Kodomo Shimbun” gazetasida tahlil etildi, chunki ushbu nashr ham ta’lim yo‘nalishidagi eng kata nashr hisoblanadi.

Yaponiya ta’lim tizimining o‘ziga xosligi shundaki, bolalar elementary (boshlang‘ich) sinflardanoq gazeta o‘qishni boshlaydilar. Ular asosan bolalar uchun mo‘ljallangan gazetalarni o‘qiydilar hamda mediasavodxonlik darslarida tahlil qiladilar. Muallif Uka Tamaning fikriga ko‘ra, maktab o‘quvchilari bufungi kunda Kanji dasturida o‘qishga qiyalmoqda. Ushbu fikr gazeta sahifasida berilishi bilan birinchi kunning o‘zida ellik mingdan ziyod maktab oqituvchilari va ota-onalar fikrlarini bildirib, albatta ushbu alifboda oqishi shartligi, bolalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishi lozimligi haqidagi mulohazalari chop etildi.

Keyingi gazeta “The Yomiuri KODOMO Shimbun” har payshanba nashr etiladigan gazeta bo‘lib, asosiy yo‘nalishi boshlang‘ich ta’lim o‘quchilari uchun mo‘ljallangan. Ushbu gazeta 2011-yili yirik yapon mediakorporatsiyasi “Yomiuri

Shimbun” ta’sisligida vujudga kelgan ko‘ngilochar rangli, 20-bet hajmida, yapon bolalarining o‘qish savodxonligini oshirish uchun qaratilgan. Gazeta turli rubrikalardan iborat, ularning ichiga o‘quvchilar uchun fanlarni oson o‘rganishlari uchun qaratilgan qiziqarli metodlar, o‘yinlar va ijodkorlikka asoslangan ta’limiy texnikalar kiradi. Shuningdek, gazetada fanlarning imtihonida duch keladigan muammolar xususida qator tahliliy maqolalar va chiqishlar beriladiki, o‘quvchilarning qiziqlishi inobatga olinadi. Tiraji bir necha yuz mingni tashkil etadi va haftalik nashrdan tashqari, gazetaning onlayn versiyasi allaqachon ko‘pchilik bolalar tomonidan foydalilaniladi, hatto uning mobil ilovasi o‘quvchilar uchun kundalik darslar va vazifalarda duch keladigan qiyinchiliklarni mutaxassislar yordamida tahlil qilib berishda eng kata yordamchi.

Demak, Yaponiyada ta’limga ixtisoslashgan 30 dan ziyod ommabop yirik tirajda chop etiladigan gazetalar mavjud bo‘lib, umumiy olib qaraganda barchasining yo‘nalishi yapon ta’lim tizimining rivojlanishiga amaliy ko‘mak berish hamda savodli, ijodkor va saviyali avlodni tarbiyalashga hissa qo‘sishdir. Buni yuqorida nomi keltirilgan ayrim nashrlar misolida ko‘rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nihon-jinlar-gazetxin xalq/ B. Alimov.-“Hurriyat”gazetasi,2018.-21-avgust
2. Utilization of Educational media in Japanese schools/Kodaira Sachiko.-2021
3. <https://www.kknews.co.jp>. 2020-2022
4. <https://wwwinfo.yomiuri.co.jp.english>
5. <https://www.japan.go.jp.education>